

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tizimida Komplayens-nazorat xizmati tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan

S H A R H

qisqa tavsif

Asosiy xulosalar:

2025-yilda Markaziy bank va davlat ulushi mavjud tijorat banklarida mustaqil Komplayens-nazorat tuzilmalari tashkil etildi hamda barcha yangi xizmatlarni korrupsiyaviy xavf-xatar tahlilidan o'tkazish majburiy etib belgilandi. Kadrlar va davlat xaridlari ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishi (**589 nafar nomzod va 1 408 ta kontragent o'rganildi**) natijasida yil davomida tizim xodimlarining korrupsiya bilan bog'liq xatti-harakatlari yuzasidan birorta ham murojaat kelib tushmadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid chora-tadbirlar dasturlari ijrosi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PQ-147-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Markaziy bank markaziy apparati hamda uning hududiy bosh boshqarmalarida **alohida Komplayens-nazorat xizmatlari** tashkil etildi. Bu islohotlar tijorat banklarini ham qamrab olib, davlat ulushi mavjud bo'lgan Xalqbank, O'zsanoatqurilishbank va Mikrokreditbanklarda to'g'ridan-to'g'ri Kuzatuv kengashiga bo'ysunuvchi mustaqil ichki nazorat tuzilmalari yaratildi. Shu bilan birga, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan imzolangan Qo'shma qarorga asosan bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

- banklarning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi xodimlari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida KPIga asoslangan oylik ish haqlarini to'lash va rag'batlantirish tizimi joriy etildi;

- xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi ISO 37001:2016 talablariga ichki nazorat tizimlari muvofiqlashtirildi;

- tijorat banklarida har bir yangi xizmat va mahsulot majburiy tarzda korrupsiyaviy xavf-xatarlar tahlilidan o'tkaziladigan tizim yo'lga qo'yildi.

Kadrlar va xaridlar nazorati

Amaliy nazorat tadbirlari doirasida kadrlar va moliyaviy xaridlar jarayoni qat'iy filtrdan o'tkazildi. Jumladan, tizimdagi **2152 nafar** boshqaruv xodimlaridan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha yillik deklaratsiyalar olindi. Davlat xaridlarining shaffofligini ta'minlash maqsadida **1 408 ta** kontragentlar affillanganlik va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha tekshirildi. Ishga qabul qilinayotgan **589 nafar** nomzodning o'tmishdagi xulq-atvori va korrupsiyaga aloqadorligi chuqur o'rganildi.

Xavf-xatarlarni baholash va profilaktika

Prezidentning PQ-240-son qarori talablariga muvofiq, Markaziy bankning **52 ta** funksiyasi baholanib, ularning birortasida yuqori korrupsiyaviy xavf aniqlanmadi. Shuningdek, davlat rahbarining PQ-228-son qarori ijrosi doirasida tizimning

125 nafar xodimi “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi”da maxsus o’quv kurslarini tamomladi. Ko’rilgan profilaktik choralar natijasida, 2025-yil davomida Markaziy bankning barcha aloqa kanallari orqali tizim xodimlari ustidan korrupsiya bilan bog’liq birorta ham murojaat kelib tushmadi (1-diagramma).



1-diagramma. Manba: Markaziy bank.

2026-yil uchun istiqboldagi rejalar

Kelgusi 2026-yildagi ustuvor rejalar bevosita Prezidentning 2025-yil 30-dekabrda PF-270-son Farmoni asosida ishlab chiqildi. Unga ko’ra, maxsus axborot bazalari bilan integratsiyalashgan “**Komplayens-nazorat elektron platformasi**” ishga tushirilib, u xodimlarning tadbirkorlik subyektlaridagi yashirin ishtirokini hamda sudlanganligini avtomatik aniqlash imkonini beradi. Qolaversa, Markaziy bank tizimini korrupsiyaga qarshi kurashish va xabar berish bo’yicha **ISO 37001:2025** hamda **ISO 37002:2021** xalqaro standartlarini tadbiiq qilish hamda komplayens-nazorat xizmati xodimlarini bosqichma-bosqich xalqaro tan olingan tashkilotlarda o’qitish va sertifikatlash rejalashtirilgan.